

Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th Oct., 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

QALQONSIMON BEZNING O'ZGARISHIDA KELIB CHIQADIGAN KASALLIKLAR

Ravshanova Kumushbibi Qobil qizi

Sayfiyeva Nargiza Xusniddinovna

Mavlonova Dilorom Oybek qizi

Siyob Abu Ali ibn Sino nomidagi jamoat salomatligi texnikumi o'qituvchilari

Annotatsiya:

Endokrinologiya kasalliklari tarkibiga kiruvchi qalqonsimon bezning garmonal buzilshida soch to'kilishi, tirnoq sinishi, semizlik, ozib ketish, stress, bepushtlik, xotiraning susayishi, ko'z bilan bog'liq muommolar kuzatiladi. Qalqonsimon bez bilan bog'liq kasalliklar yuzaga kelmasligi uchun yodlangan osh tuzini istemol qilish tafsiya etiladi. Hududlarda endokrinologiya dispanserlarini zarur reaktivlar bilan taminlash yo'li endokrinologik kasalliklarning zamonaviy diagnostika usuli ishlab chiqilmoqda.

Kalit sozlar: Endokrinologiya, Buqoq kasallik, simptom, yod tanqisligi, bez, garmon, organizim.

Qalqonsimon bez bilan bog'liq muammolar hayot uchun jiddiy xavf tug'dirishi mumkinligi ko'pchilikka noma'lum. Endokrinologga tashrif buyurish boshqa shifokorlarga qaraganda kamroq ahamiyatga ega bo'lgan rasmiy hodisa sifatida qabul qilinadi, Agar ko'pchilik qalqonsimon bez butun organizm uchun katta ahamiyatga ega bo'lgan organ ekanligini bilsa, o'z munosabatini o'zgartiradi. Insonning kayfiyati va hatto temperamenti uning ishiga bog'liq bo'lishi mumkin. Qalqonsimon bez metabolizmning intensivligi uchun mas'ul bo'lgan gormonlar ishlab chiqaradi, yurak-qon tomir tizimi, oshqozon-ichak trakti ishini, aqliy va jinsiy faoliyatni tartibga soladi. Odatda, qalqonsimon bez bilan bog'liq muammolar insonni boshqa sog'liq muammolariga qaraganda kamroq qo'rqitadi. Ammo metabolizm bevosita ushbu organning ishiga bog'liq.

Qalqonsimon bez kasalligi-odam va hayvonlarning ichki sekretiya bezilari bilan bog'liq bo'lgan kasallik hisoblanadi. Qalqonsimon bezning rivojlanish darajasi homilalik davrida boshlanib, bolalarda 1-yoshga yetganda uning vazni 1-2 gramni tashkil etadi, o'sish jarayonida u kattalashib 14-20 gramgacha yetadi. Inson organizimida va hayvonlar organizimida turli shakilda shakillanadi. Qalqonsimon bez embrion jabra xaltachasi epiteliysidan rivojlanadi.




Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th Oct., 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com



Qalqonsimon bez odam embrioni taraqqiyotining 8-9 oyligida to'liq shakllanib, gormonlarni ajrata boshlaydi va u bo'yinda, hiqildoq tog'aylari sohasida joylashgan bo'lib 2 palla va bo'yinchadan iborat bo'ladi. Qalqonsimon bez tufayli kelib chiqishi mumkin bo'lgan salomatlikdagi 6 ta muammolar mavjud shularni birin ketin sanab o'tamiz.

1. Vazn o'zgarishi: Metabolizm tezligi qalqonsimon bezga ham bog'liq va shuning uchun uning ishidagi eng kichik o'zgarish darhol sezilarli bo'ladi. Qalqonsimon bez haddan tashqari faol bo'lsa, to'satdan va sezilarli darajada oz yoki hech qanday harakat qilmasdan vazn kamayishi mumkin. Agar, aksincha, bez odatdagidan ko'ra kamroq gormonlarni qonga chiqaradigan bo'lsa, shish boshlanadi va semirish kuzatiladi.

2. Uyquchanlik va charchoq hissi: Juda ko'p ishlash, yetarlicha dam ololmaslik qiynaydimi? Doimo uyquchanlik va yengil yumushlar ham charchatadimi? Xulosa chiqarishga shoshilmang: ehtimol bularning barchasi qalqonsimon bezning yaxshi ishlamasligidandir.

3. Termoregulyatsiya bilan bog'liq muammolar: atrofdagilarning hammasi issiqdan aziyat chekayotgan bir vaqtda sovqotish yoki aksincha, sovuq mavsumda terlash.

4. Hayz davrining buzilishi va homilador bo'lmaslik: ayollarning reproduktiv salomatligi endokrin tizim bilan bevosita bog'liq bo'lib, homilador bo'lish qobiliyati asosan qalqonsimon bezning yaxshi ishlashiga bog'liq.

Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th Oct., 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

5. Depressiya va tashvish: agar qalqonsimon bez juda ko‘p gormon ishlab chiqarsa, organizmning umumiy ritmi kuchayadi, asab tizimi stressni boshdan kechiradi va asabiylik hamda tashvishlanish kuzatiladi.

6. Teri va soch muammolari: gipotireozning yana ikkita muhim belgisi soch to‘kilishi va quruq teridir. Yozda ushbu alomatga duch kelishdan, ayniqsa ehtiyot bo‘lish kerak. Gap shundaki, metabolizm bilan terlash ham kamayadi, buning natijasida teri kamroq namlanadi, quriydi va hatto tezroq suvsizlanadi¹

Qalqonsimon bezni bir juft yuqori va bir juft pastki arteriyalar qon bilan ta‘minlaydi, simpatik va parasimpatik nerv tolalari innervatsiya qiladi. U organizmda modda va energiya almashinuvi regulyatsiyasida ishtirok etuvchi yodli gormon tiroksin , triyodtironin va tireokaltsitonin ishlab chiqaradi.

Endokrinologik kasalik deganda hozirgi kunda insoniyat ongida Buqoq kasalligi ko‘z oldimizga keladi. Buqoq kasalligi bu -yod tanqisligi bo‘lib bezning kattalashishi kuzatiladi. Yod tanqisligi e‘sa, insonning turmush tarzidagi stresstda ekologik o‘zgarishlar kabi bir qancha narsalar sababdir. Yod yetishmovchiligi natijasida xotira susayishi, soch to‘kilishi, past bo‘ylik, tirnoqlar sinishi, ba‘zi turlarda e‘sa ozib ketish kabi holatlar yuz beradi. Garmonlarning sintezining buzilishi kuzatiladi. Yuqoridagi simptomlar sababli yurak urishi tezlashib yoki sekinlashib, qon bosimi odatdagidan o‘zgarishi yuz beradi. Yana asosiy belgilardan biri nafas qisilishi va puls tezlashishiga olib keladi.

Kasalliklarning oldini olish uchun O‘zbekistonda ham, aholi o‘rtasida ko‘plab profilaktika ishlari olib borilmoqda. Respublikamizning turli xududlardagi ratsionida yod tanqisligi kuzatilib kelinmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 26.01.2022 yildagi PQ102-son Endokrinologiya xizmatini takomillashtirish va ko‘lamini kengaytirish choratadbirlari to‘g‘risida² . Bu qarorga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasi aholisiga endokrinologiya yordamini ko‘rsatish bo‘yicha milliy dastur doirasida diagnostika va davolashning yangi standartlari tasdiqlandi. 75 mingga yaqin bemorlariga davlat butjeti asosida 100% insulin bilan bepul taminlanildi. Fuqorolar tomonidan kunlik o‘ratcha yod iste‘moli sezilarli darajada kamaygan bo‘lib, bor yog‘i 32-64 mkgni tashkil etadi. Bu degani minimal miqdorda 150-200 mkgni tashkil etadi. Endokrinologik kasalliklar bo‘yicha butun

¹ www.ziyonet.uz

² <https://lex.uz/uz/docs/-5838968>



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th Oct., 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

jahon SSTni ma'lumotiga ko'ra Buqoqning sporadic kasalliklari 5% ga kamayishiga erishilsa, yod tanqislik kasalliklarini bartaraf etiladi. Hozirgi kunda esa yod tanqisligi holati 31% ni tashkil etib, 2020-yilda esa 2.5 barobardan ortiq kamaygan. 202-yilga kelib esa 2% ni tashkil etadi. Bu borada faqatgina tadqiqotchilar emas balki bir guruh tibbiyot xodimlari ham kurashmoqda.

Davolash. Birdan bir davolash usuli paratireod adenomalarni olib tashlashdan iborat. Gipoparatireoz. Paratgormon etishmovchiligiga bog'liq bo'lgan kasallik yoki holat. Gipoparatireoz sabablari paraqalkonsimon bezlarning yallig'lanish kasalliklari, shikastlanish vaqtida qon quyilishi, qalqonsimon bezning tug'ma kamchiligi, uni tasodifan olib tashlash yoki shikastlab qo'yish. Klinikasi va diagnostikasi. Gipoparatireoz – talvasa xurujlari bilan o'tadi. Talvasalar klonik xususiyatga ega bo'lib, aksariyat yuz mushaklarida paydobo'ladi va simmetrik mushak guruhlarini qamrab oladi. Talvasa qorin devori mushaklari va ichdagi silliq mushaklar spazmiga bog'liq holda qorinda og'riq bilan o'tadi. Laringospazm bilan asfiksiya paydo bo'lish ehtimoli bo'ladi. Unga Xvostek va Trusso simptomlari xos.

Xvostek simptomi – yuz nervi proektsiyasi sohasida quloq yumshog'i oldida barmoq yoki perkussion bolg'a bilan uribko'rilganda, burun parragi va og'iz burchi sohasidagi mushaklar qisqaradi. Trusso simptomi – qo'ltiqdagi nervqon tomirlar tutami sohasi bosilganda, qo'l kaftining “doya qo'li” belgisi ko'rinishida tonik qotib qolishi, farq qilib turadigan belgisi hisoblanadi. Epilepsiya xurujlari bilan tafovutlanishi lozim.

Xulosamiz shundan iborat endokrin tizimi kasalliklarining alomatlari, endokrin tizimi inson tanasida deyarli barcha hayotiy jarayonlarni tartibga solishda juda muhim rol o'ynaydi. Ichki sekretiya bezlari garmonlar ishlab chiqaradi, bu jarayonni buzilishi jiddiy kasalliklarga olib keladi. Ko'pchilik boshlang'ich davrda organizmdagi o'zgarishlarga befarq bo'ladi yoki charchoq, stress va boshqa holatlarga bog'lab, shifokorga murojaat qilmaydi. Kasallik kuchayib ketmasidan avval endokrinolog shifokori bilan maslahatlashib, boshlang'ich davridayoq davolash va salbiy oqibatlarining oldini olish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. A.Axmedov G.Ziyomudinova. Anatomiya, Fiziologiya va Patologiya.
2. R.E.Xudoyberdiyev, N.K.Axmedov, R.A.Alaviy, S.A.Asamov. Odam Anatomiyasi.
3. A.Qodirov. Odam anatomiyasi.
4. www.ziyonet.uz
5. <https://lex.uz/uz/docs/-5838968>

